Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashi
QARORI

Xaliq deputatlari Taqiyatas rayonliq Ken'esi
SHESHIMI

2021 - yil 30 - dekabr II-37-21-13-215-K/21 Taxiatosh tumani hokimligi

Taxiatosh tumanining 2022-yilgi byudjet parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi (“O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2013-yil 31-dekabr, 52-(I)-son)ning 28 va 100-moddasining bajarilishini ta’minlash maqsadida, 2022-yil uchun Taxiatosh tumani mahalliy byudjetining daromadlar va harajatlar miqdori, aylanma kassa xarajati miqdori va byudjetga tegishli boshqa ko‘rsatkichlarni qarab chiqib, Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I

1. Taxiatosh tumani mahalliy byudjetining 2022-yil daromadlar harajatlar bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarining kutilayotgan ijrosi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Taxiatosh tumani mahalliy byudjetining 2022-yil uchun Taxiatosh tumani byudjetining daromadlar prognozi **1-ilovaga muvofiq**, 2022-yilgi Taxiatosh tumani byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari to‘g‘risida **2-ilovaga muvofiq,** Umumdavlat soliqlaridan Taxiatosh tumanining mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yorlari **3-ilovaga muvofiq,** 2022-yil uchun Taxiatosh tumani byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari **4-ilovaga muvofiq,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, Taxiatosh tumani mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari **5-ilovaga muvofiq,** Taxiatosh tumani mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armalari **6-ilovaga muvofiq,** Taxiatosh tumani mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdorlari **7-ilovalarga muvofiq** tasdiqlansin.

3. Tuman moliya bo‘limi belgilangan tartibda tegishli mahalliy byudjetga

harajatlar hamda byudjet ssudalari (daromad va harajatlar orasidagi vaqtinchalik kassa ayirmachiliklarini qoplash uchun) ajratishda, ularning miqdorlarini tuman bo‘yicha barcha soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushishidan, shuningdek ish haqi (yagona ijtimoiy to‘lov bilan), nafaqalar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlar bo‘yicha byudjet harajatlari birinchi navbatda so‘zsiz moliyalashtirilish zaruriyatidan kelib chiqib, aniqlashtirish huquqi berilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Amanov) tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda:

- byudjet daromadlarining tasdiqlangan ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash;

- tuman hokimligining tegishli byudjetlar daromatlari va xarajatlari balansligiga ta’sir ko‘rsatuvchi normativ-huquqiy xujjatlarni moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o‘tkazish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi moliya vazirligiga taklif berish;

- xududlarda soliq solish bazasini kengaytirish xamda moliyaviy xolatini yaxshilash bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;

- byudjet mablag‘larining maqsadli ishlatilishi ustidan qattiq nazorat o‘rnatish topshirilsin.

5. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (Q.Aliev) tuman mahalliy byudjetining daromadlar qismining soliq turlari bo‘yicha oshirib borilishini ta’minlasin.

6. Tuman moliya bo‘limi (J.Saparov)ga;

Taxiatosh tumani mahalliy byudjetning 2022-yil davomida mahalliy byudjet xarajatlarining qisqarishi natijasida paydo bo‘lgan qo‘shimcha mablag‘lar tushumi hisobidan tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur o‘zgarishlar kiritib borish;

- byudjetdan mablag‘ oluvchilarning byudjetdan moliyalashtirishni ta’minlashni chuqur tahlil qilib borish;

- zarur hollarda byudjet mablag‘larining saqlanishini asossiz deb topilgan va byudjet mablag‘larining maqsadsiz ishlatilish holatlari sodir bo‘lgan byudjet korxonalarini qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimligiga va tegishli boshqarmalarga takliflar kiritish;

- Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashiga mahalliy byudjetning

bajarilishi bo‘yicha har chorakda hisobot kiritish;

- tuman g‘aznachilik bo‘linmasi bilan birgalikda byudjet mablag‘larini maqsadli foydalanish hamda ularning maqsadsiz ishlatilishining oldini olish ustidan g‘aznachilik ijrosi orqali qat’iy nazoratga olish topshirilsin.

7. Xalq deputatlari Taxiatosh tumani Kengashining 2020-yil 29-dekabrdagi “Taxiatosh tumanining 2021-yilgi byudjet parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 18/53-sonli qarori 2021-yil 31-dekabr kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari buyicha doimiy komissiyasi (Artikov) zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash Raisi **I.I.Matkarimov**

Халқ депутатлари Тахиатош туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
II-37-21-13-215-K/21-сон қарорига
1-илова

2022 yil uchun Taxiatosh tumani byudjetining daromadlari prognozi

mln.so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
I	**JAMI SOLIQ VA YIG‘IMLAR**	**20 366,0**
1	YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
2	YAgona soliq to‘lovi	
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	
4	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslarning qat’iy belgilangan soliq	350,0
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
6	Aksiz solig‘i, jami	0,0
	shundan	
	- aroq	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan aksiz solig‘i	
7	YUridik shaxslarning mol-mulk solig‘i	
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i	1 300,0
9	YUridik shaxslarning er solig‘i	6 823,0
10	Jismoniy shaxslarning er solig‘i	6 731,0
11	Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun (noruda)	78,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 453,0
13	Davlat boji	
14	Jarimalar	
15	Ijara to‘lovlari	
16	Aylanmadan olinadigan soliq	3 631,0
17	Yig‘imlar	
II	O‘tkazilib beriladigan daromadlar	**12 085,0**
	Aholi soni (ming kishi)	*74,8*
1	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	4 574,0
2	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	2 606,0
2	Tamaki maxsulotlariga aksiz solig‘i	4 905,0
III	Transfertlar	**60 929,9**
	JAMI DAROMADLAR	**93 380,9**

Халқ депутатлари Тахиатош туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
II-37-21-13-215-K/21-сон қарорига
2-илова

2022 yilgi Taxiatosh tumani byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

mln.so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	2022 yil
	Jami xarajatlari	**93 381,0**
1	**Ijtimoiy soxasi va xalqni ijtimoiy ximoya xarajatlar jami**	**75 934,8**
	SHunindek:	
1.1	Maorif	***13 316,9***
	Umumta’lim	5 605,3
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
	Maktabgacha ta’lim	7 711,6
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
1.2	Sog‘liqni saqlash xarajatlari	33 529,9
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
1.3	Madaniyat va sport, g‘alaba axbarot vositalari	*3 815,4*
	.-Madaniyat va g‘alaba axbarot vositalari	758,4
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
	.-sport	3 057,0
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	25 229,1
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
1.5	Ijtimoiy ko‘nikma markazi	43,5
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
2	**Iqtisodiyot xarajatlari**	**8 748,0**
	SHundan:	
2.1	Qishloq xo‘jaligi tashkilotlari	254,2

	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
2.2	Obodonlashtirish	6 863,5
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
2.3	Drenaj	
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
2.4	Suv xo‘jaligi tashkilotlari	1 044,0
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
2.5	Veterinariya komiteti tashkilotlari	586,3
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
3	**Davlat xokimiyati va boshqaruv organlari saqlash xarajatlari**	**8 698,2**
3.1	Davlat boshqaruv organlari tashkilotlari	5 902,2
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
4	**Uzini-uzi boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari**	1 871,4
	SHundan indeksatsiyasiz	
	indeksatsiyasi	
5	**Xokimlikning zaxira jamg‘armasi**	**924,6**

Халқ депутатлари Тахиатош туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
II-37-21-13-215-K/21-сон қарорига
3-илова

Umumdavlat soliqlaridan Taxiatosh tumanining mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yorlari

Foiz hisobida

№	SHahar va tumanlar	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	YUridik shaxslarning foyda solig‘i	Jismoniy shaxslarning daromad solig‘i	Aylanma mablag‘lardan olinadigan soliq	Aksiz solig‘i-benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan	YUridik shaxslarning mol-mulk solig‘i	YUridik shaxslarning er solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Yig‘imlar	Davlat ulushi mavjud korxonalarning sof foydasidan
1	Taxiatosh tumani	0	0	0	100	100	0	100	100	0	0

Халқ депутатлари Тахиатош туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
II-37-21-13-215-K/21-сон қарорига
4-илова

2022 yil uchun Taxiatosh tumani byudjetining daramodlari va xarajatlari prognozlari

mlrd.so‘m

№	SHahar va tumanlar	Daramodlar	Xarajatlar
1	Taxiatosh tumani	32,5	93,4
Jami		**32,5**	**93,4**

Халқ депутатлари Тахиатош туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
II-37-21-13-215-K/21-сон қарорига
5-илова

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, Taxiatosh tumani mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

mlrd. so‘m

№	Hududlar	Tartibga soluvchi transfertlar
1	Taxiatosh tumani	60,9

Халқ депутатлари Тахиатош туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
II-37-21-13-215-K/21-сон қарорига
6-илова

Taxiatosh tumani mahalliy byudjetlarining zaxira jamg‘armalari

mln. so‘mda

T/r	**Hududlar nomi**	**Zaxira jamg‘armalari**
	JAMI	**924,6**
	shundan	
1	Taxiatosh tumani	924,6

Халқ депутатлари Тахиатош туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
II-37-21-13-215-K/21-сон қарорига
7-илова

Taxiatosh tumani mahalliy byudjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	**Hududlar nomi**	**Miqdori**
	JAMI	**703,3**
	shundan	
1	Taxiatosh tumani	703,3